



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67

e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat ma'nosini nazariy ravvoflik kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabaqi 8.0. «Ekolojika» garmatira. 10, 11 kepl. «ECO TEXTILE PRODUCTION» MCHJ bosma-xaridida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayramta ... Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan nashrda.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonat testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mustahkamligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Aqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shatmatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usul	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - behavo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mustahkam jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'rnatish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'rnatishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'liq lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rnatish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalinishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa metodidan foydalanish usullari	78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2689

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

Malik KABIROV f.f.n., Hikmat HIKMATOV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ADABIYOT DARSIDA YANGI – “XAMSA” METODIDAN FOYDALANISH USULLARI

Bir soatlik dars jarayonini o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamjihatligida o'ta samarali tashkil etish mumkin. Gohida shunday holatlar ham bo'ladi, vaqtning noto'g'ri taqsimoti natijasida darsdan o'qituvchi ham, o'quvchi ham qoniqmaydi. Aynan ana shu holatlarni bartaraf etish uchun biz ilgari surayotgan metod orqali darslaringiz mazmunini va zavqli o'tadi. Mazkur metodni yigirma besh yillik ish tajribamga tayangan holda ishlab chiqib, amaliyotda qo'llaganman va anchagina samaraga erishganman.

Xo'sh, bu qanday metod?

Oxirgi vaqtlarda an'anaviy dars jarayonlari o'miga "klaster", "kinbord", "trening", "charxpalak", "konferensiya" va boshqalar yangi pedagogik texnologiya usullari keng qo'llanilmoqda.

Ana shu nuqtaiy nazardan, biz yangi metodimizni "Xamsa" deb nomladik. Ma'lumki, ushbu so'z arab tilidan olingan bo'lib "beshlik" ma'nosini anglatadi. Adabiyotimizda "Xamsa" yozish an'anasi Nizomiy Ganjaviydan boshlanib, keyinchalik Amir Xusrav Dehlaviy, Badriddin Hiloliy, Alisher Navoiy, Shamsiddin Shohin va yana boshqa adiblar tomonidan davom ettirgan. Ushbu metodning "Xamsa" nomi bilan atalish bejiz emas. Sababi adabiyot darslari beshlik san'ati asosida tashkil etiladi.

Namuna sifatida, ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarning 8-sinf o'quvchilari uchun "Sayidoning tarbiyaviy-axloqiy fikrlari"ni tanladik. Ushbu metodni boshqa tillarda ham keng qamrovi va turli xil usullarda tashkil etish mumkinligini alohida aytishimiz mumkin. Bu kabi darslar jarayonini tashkil etish o'qituvchilar salohiyatiga bog'liq bo'ladi.

Dars jarayonini boshlashi bilan o'qituvchi doskaga mavzu bo'yicha beshta reja yozib qo'yadi. Masalan:

Sayido g'azallarida tarbiyaviy-axloqiy fikrlarning ahamiyati;

Kasb-hunar va mehnatsevarlik his-tuyg'ulari;

Insoniy fazilatlarini qadr qilish;

Komil insonga faqat odob-axloq yetaklaydi;

Turli mazmundagi baytlarga sharhlar berish.

Tajribali o'qituvchi har bir reja-savollarga keltirilganlar doirasida beshta gap-so'z bilan dars mazmunini ochib beradi. Misol, birinchi reja "Sayido g'azallarida tarbiyaviy-axloqiy fikrlarning ahamiyati" bo'yicha quyidagi fikrlarni aytib o'tadi:

– Sayido odob-axloq normalariga katta e'tibor qaratadi. Jamiyatdagi salbiy illatlarga shoir chidolmay o'z fikr-mulohazalarini g'azallarida bayon etadi. Uning maqsadi ushbu yo'l bilan yoshlarning odob-axloq normalariga astoydil rioya qilishlariga erishib, jamiyat rivojlanishiga o'z hissasini qo'shish edi. U tarbiyaviy-axloqiy fikrlarini ma'naviy mero-simizga tayangan holda ilgari surgan. O'zi o'tmishimizdan qolgan fazilatlardan faxrlangan.

Mavzuni ikkinchi topshirig'iga oid quyidagi fikrlarni bayon etish mumkin: Sayidoning kasb-hunar mavzusiga e'tibor qaratgani bejiz emas. Zero, uning o'zi to'qimachilik hunari ustasi edi. Shu bilan birga ijodida ularga bo'lgan

e'tibor va hurmat-ehtiromini bayon etadi. Mazkur kasb-hunar sohiblari tinch va totuv yashashlarini uqitirdi. Qariyb har bir ijtimoiy mavzuda yozgan g'azallarida ushbu fikrlarni aytib o'tadi.

Mavzu rejasining to'rtinchi topshirig'iga mos quyidagi so'zlar doirasida fikrlarini jamlashi mumkin: – Sayido Nasafiy o'zi komil inson bo'lgan. Umlarini ko'pincha ahli hunar orasida o'tkazgan. Eng ko'p vaqtlarini kitob o'qish va unda ko'rsatilgan barcha e'zgu xulq-odoblarga amal qilish bilan band etgan.

Rejada ko'rsatgan beshinchi talabga esa, o'qituvchi o'quvchilarga darslikni ochishlarini buyuradi. So'ngra kitobda keltirgan baytlarni o'zi ifodali o'qib, har bir bayt doirasida mazmunini beshta gap bilan ochib beradi. Misol tariqasida baytlardan darslikning 181-betidan namunalarni keltiramiz.

Rostiro, nabuvad hyec zavole ba qahon,

Sarv agar, xushk shavad boz aso megardad.

Mazmuni: Jahonda faqat rostlikka zavol bo'lmaydi. Ya'ni, kim to'g'ri yo'lga yursa, hyech ziyon ko'rmaydi. Sarv daraxti mevasiz bo'lgani bilan, rost (to'g'ri) o'sadi. Hatto qurigan holatida ham tayoq sifatida xizmat qiladi. To'g'ri yoshu quriga bir xil ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu mavzuni ko'lgan holda, quyidagi baytlarga ham ma'no chiqarsak bo'ladi: Sarv meoyad ba istiqbolash az bog'i murod,

Rostiro har kii mesozad asoi xeshtan.

Mazmuni: kimki to'g'ri yo'lga yursa, uning istiqboliga murod bo'ldan to'g'ri yo'lga yolg'ildi. Ya'ni, kimki rostgo'ylikni o'ziga odat qilib olsa, uning oldiga hurmatli kishilar va hatto buyuklar istiqbol qilib keladilar. Faqat to'g'ri inson zotini cho'qqilar sari yetaklaydi. Va bu odatni kasb etgan kishi hamisha sarbaland va quvnoq yashaydi.

O'lgan ajdoddan shu o'z odob-axloqqa amal qilgan holda buyuklik darajasiga noyil bo'lganlar.

O'qituvchi rejada ko'rsatilgan talabga amal qilgan holda, uchinchi baytlarni tahliliga o'tadi.

Bayt:

Sayido, mardi hunamand az taraddud forig' ast,

Dast agar dar kor mashg'ul ast, po osudaast.

Mazmuni: Sayido, o'z shaxsiga murojat qilib, hunarmand kishi barcha taraddudli ishlardan ozod bo'ladi. Kim behuda ishlardan voz kechadi deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrni davom ettirgan holda, kimki qo'llarini doimiy ravishda mehnat qilish bilan band qilsa, oyog'iga osudalini ta'minlashini aytib o'tadi.

Shu o'rinda darslikda keltirgan to'rtinchi baytlarga o'quvchilar diqqatini jamlab, avval ifodali o'qib o'tadi:

Dar go'shi g'uncha bodi sahar ostanu biguft:

"Dar har dile, ki bo'yi vafu nest, xamastan".

Keyin, mazmunini quyidagicha sharhlab bersa maqsadga muvofiq bo'ladi: tongda o'sadigan nasim g'unchaning qulog'iga uqtirib qo'ygani kabi, men ham sizlarga shuni yetkazamanki, vafq qilganing kishini doimiy ruhiy ravoni tinch bo'ladi. Ya'ni shoir ahdda vafq qilmoqlikni oliy fazilat deb baho beradi.

Malakali o'qituvchi beshinchi baytlarni o'quvchilarga havola qilishi ham mumkin. Agarda ular sharhlash jarayonida muammoga duch kelsa, o'zi sharhlab beradi:

*Be talab, ey Sayido maqsad nameoyad ba das,
Cho ba mav'is mekunad nay az fig'oni xeshtan.*

Mazmuni: hych bir maqsad talab qilmasdan ro'yoga chiqmaydi, masalan majlis (baza)larda ham agar nay nola chekmasa, uning ushbu joyda bo'lganini hych kim payqamaydi. Ya'ni, Sayido maqsad sari insonlarni intilishini ta'kidlaydi.

Ushbu jarayonni o'tkazish uchun o'qituvchidan ko'p vaqt talab qilinmaydi. Darsga ma'suliyat bilan yondoshgan o'qituvchiga mavzuni o'quvchilarga yetkazish uchun atigi 20-25 daqiqa vaqt kifoya qiladi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni beshta guruhga ajratadi: ularga bittadan sardor tayinlaydi. O'quvchilarga o'zi bilan tayyorlab olib kelingan beshta savolnomani sardorlari orqali bo'lib beradi. Har bir savolnomada beshtadan savol yozilgan bo'ladi. 1-savolnomada mavzuning birinchi reja-savoli bo'yicha beshta savol qo'yilgan bo'ladi. Masalan, reja bo'yicha quyidagi savol doskaga yozilgan edi:

– Sayido g'azallarda tarbiyaviy-xalqiy fikrlarining ahamiyati. Ushbu reja asosida quyidagi savollarni yozish mumkin:

a) Sayido davrida odob-axloqiy qay tarzda yo'ga qo'yilgan edi?

b) Sayido hayotda ko'proq nimaga e'tiborli bo'lishni ilgari surgan?

v) Sayido nimalarni ko'proq qadr qilishni aytgan?

g) Kimlar komil inson nomiga loyiq bo'lishlari mumkin?

d) Qaysi baytda falsafiy ma'nolar bayon etilgan?

Aynan shu tarzda, doskaga yozilgan beshta reja muvofiq savolnomada savollar yozilgan bo'lishi shart. O'quvchilarga guruhda ishlab savollarga javob tayyorlashi uchun 5 daqiqa vaqt ajratadi. Javoblar tayyor bo'lgandan keyin har bir guruhdan so'rab oladi. Shu bilan bir soatlik dars bir soatni o'zida takrorlanib olinadi.

Darsning oxirgi qismida esa, o'qituvchi o'zi tomonidan tayyorlangan beshta savolni mavzu doirasida umumiylik tarzida, ya'ni butun sinf o'quvchilarga beradi. Misol tariqasida:

Biz darsimizni qaysi metod bilan tashkil etdik va bu metodni ma'nosi nimadan iborat?

Biz dars jarayonida "Xamsa" yozgan allomalar nomini esga oldik, ular kimlar edi?

Sayidoyi Nasafiy qaysi beshta fazilatni ijodida ko'proq tarannum etgan?

Darsimiz nechta reja asosida tashkil etildi va ular qaysilar?

Har bir reja bo'yicha nechtadan gap aytiladi va nechta bayt tahlil qilindi?

O'qituvchi yuqoridagi savollarga to'liq javob bergan o'quvchilarni rag'batlantirgan holda baho qo'yadi. Albatta, baho qo'yish ham besh ballik asosida tashkil qilinadi. Va, albatta, beshta o'quvchiga baho qo'yishni tavsiya qilgan bo'lardik.

Dars oxirida o'quvchilarga vazifa topshiradi va quyidagi savol va topshiriqlarni Adabiyot daftari yozdiradi.

Ushbu dars metodining an'anaviy darslardan nima farqi bor?

Dars jarayonida yana qaysi besh metodlarni nomi tilga olindi.

Beshta baytni yodlab olish.

Yangi metod bo'yicha o'zingizni shaxsiy fikringiz va xulosangizni beshta gap asosida yozing.

Dars jarayonida beshta harflardan iborat bo'lgan ushbu beshta lug'atlarni "Imlo lug'atidan" ma'nolarini yozing: zavol, sayid, nasaf, izzat, xamsa.

Ushbu tarzda bir soatlik darsni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Sababi an'anaviy tarzda dars o'tib kelayotgan o'quvchilarda darsni bu tarzda tashkil qilinishi no'anaviy holat bo'lib qoladi.

Oxirgi vaqtlarda, ya'ni zamonaviy texnologiya ta'lim sohasiga kirib borayotgan bir paytda, darslarni turli metod va usullarda tashkil qilish, o'quvchilarni tafakkur etishiga yo'l ochadi. Ularni dunyoqarashini kengaytib borishga zamina yaratadi. Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlash kerakki, bu kabi tashkilatlash jarayonlarda o'qituvchilar juda faollik bilan ish olib borishlari zarur bo'ladi. Misol tariqasida, yuqorida keltirgan bir soatlik darsimizga fidoyi o'qituvchi, albatta, o'quv qurollari bilan hozir bo'ladi. Sayidoyi Nasafiyning kompyuterda tayyorlangan rasmi, yo kim uning "Shahroshub", "Bahoriyot", "G'azal devoni" asarlari va agar ushbu qo'llanmalar bo'lmagan paytda, internet tarmoqlaridan ularni rasmlarini olib kelib ko'rsatish ham o'quvchilar uchun yangilik bo'ladi. Zeroki, ba'zi o'quvchilarda ko'rish qobiliyati eshitishidan ko'proq bo'ladi.

Agar o'qituvchi ushbu darsni namunaviy dars sifatida o'tkazmoqchi bo'lsa, albatta, maktab ma'muriyati bilan kelishgan holda, beshta "Tashakkumoma" yo "Sertifikat" tayyorlab jarayonni yanada ko'tarinki holatda tashkil etishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. A.Qamrazoda, E. Hoshonqulov, U. Qamarova, "Adabiyot" sinfi 8. – Toshkand, xonai e-qodli tab'u nashri "O'zbekiston", soli 2019.
2. Hikmatov, H. S. (2021). Tarzi ta'limi iborahol frazeologiya dar sinfi 6. Academic Research in Educational Sciences, 2(12), 492-496. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-12-492-496>
3. N.Xolikova. Olam ahli bilimgizkim, ish emas dushmanlig'. Academic research in educational sciences, Volume 2, Issue 2, 2021. – Pp. 624-631.
4. Hikmatov Hikmat Sultonovich, (2021). Tavsiyaho doir ba tarzi ta'limi mavzoi "hayot va fa'oliyati abo'abdullohi ro'daki" dar sinfi 7. Invoitalnovatsion Scientific Journal. Vol. 1, ISSUE 1, 2021. December.
5. O'zbekboy Rahmonov "Rozhoh ta'rix", (Ta'rix tilga kirganda) "Alisher Navoiy" nashriyoti, – Navoiy, 2016, 36 bet.
6. H.Quchqorov, Mavqeyi Javdat dar hayoti adabi Samarqand. ALMA MATER. – Samarqand: SamDCHTI nashri. 2020. 62-65 b.
7. "Farhangi zaboni tojik", (qildohi 1.2). – Moskva, 1969.
8. Hikmatov, H.S.(2021). Tafsiiri muxtasar meboyad, Academic Research in Educational Sciences, 2(10), 1008-1013. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-10-1008-1013>
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008 yillar;